

TABIATDAN FOYDALANISH TADBIRINI AMALGA OSHIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Xaydarova Farangiz Zoir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Geyografiya va iqtisodiy bilim asoslari yunalish 2-kurs talabasi

(+99894 268 05 23)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiatdan foydalanish tadbirini amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligi va uning atrof-muhitga ta'siri yoritiladi. Unda resurslardan oqilona boshqarish, ekologik zararlarni kamaytirish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish shuningdek tabiatdan foydalanish bo'yicha global va mahalliy amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat chiqindilari, suv, transport vositalari, pilastik chiqindilar, deforestatsiya, yer.

Tabiatdan oqilona foydalanish nafaqat bugungi iqtisodiyotning muhim sharti, balki kelajak avlodlarga berilgan eng katta sarmoyadir shunday ekan ekologik zararlarni kamaytirish hamda tabiatni himoya qilish emas balki iqtisodiyot uchun yashil yo'lak yaratishimiz lozim. XXI-asrning eng samarali innovatsiyalaridan biri Chiqindilarni iqtisodiy aktivga aylantirish bo'lib qoldi. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bir qatorda uni to'g'ridan-to'g'ri poligonlarga yoki tabiatga tashlashning oldini olib, tuproq, suv va havoni ifloslanishidan asraydi. Chiqindilarni qayta ishlashning yana bir foydali va qulay tamoni ish o'rinlarini yaratadi: Qayta ishlash sanoati butun dunyoda yangi ish o'rinlari yaratmoqda. Tabiiy resurslar iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Ularni samarali boshqarish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki uzoq muddatda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda tabiatni eng ko'p ifloslayotgan omillar va ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar haqida quyida foiz ko'rsatgichlari bilan batafsil ma'lumot beradigan bulsak ularning eng ko'p ifloslovchi omildan biri bu

1.Havo ifloslanishi (40%)

Sanoat chiqindilari (25%): Zavodlar va elektr stansiyalaridan chiqayotgan karbonat angidrid, azod oksidi va oltingugurt dioksidi gazlari

Transport vositalari (15%): Avtomobillar va samalyotlardan chiqadigan gazlar

Bu kabi muamollarni oldini olish maqsadida bir qancha choratadbirlar yulga quyilmoqda. Masalan : Sanoat chiqindilarini nazorat qilish : Zavod va fabrikalarda filtrlar va tozalash uskunalarini o`rnatish .Transportni optimallashtirish : Elektr transport vositalarini joriy etish va jamoat transportidan foydalanishni targ`ib qilish lozim .Yashil energiyaga o`tish : Quyosh ,shamol va suv energiyasidan keng foydalanish lozim .



2 Suv ifloslanishi (30%)

Sanoat chiqindilari (15%): Fabrikalar va zavodlardan tozalamasdan tashlangan kimyoviy moddalar va og`ir metallar .

Qishloq xo`jaligi (10%) : Pestitsid va o`g`itlar yomg`ir suvi orqali daryolar va ko`llarga tushadi .

Plastik chiqindilar (5%): Okeanlar va daryolarga tushayotgan plastic maxsulotlar.

Bu kabi muamollarning oldini olish uchun . Suv resurslarini tozalash inshootlarini qurish va ularning samaradorligini oshirish . Qishloq xo`jaligida ekalogik usullarni joriy qilish : Organik o`g`tlardan foydalanish va suvni tejoychi texnologiyalarni qo`llash lozim. Plastik chiqindilarga qarshi kurash :Suv havzalariga plastic chiqindilarni tashlashni taqiqlash lozimdir.

3 Yer resurslarining ifloslanishi (15%)

Chiqindilarni boshqarilmasligi (10%) Plastmassalar va toksik chiqindilar tuproqlarni zaharlaydi.

Deforestatsiya (5%) O`rmonlarning haddan tashqari kesilishi yerning ekologik balansi buzadi .

Yer resurslarini himoya qilish uchun: Quyidagicha masalalarni o`rganish lozim.Qattiq chiqindilarni qayta ishlash:Plastmassalar ,metallar va boshqa metallarni

qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish .O`rmonlarni saqlash qonunchilik orqali noqonuniy daraxt kesishning oldini olish va o`rmonlarni tiklash dasturini amalga oshirish lozim .

4 Plastik chiqindilari (10%)

Har yilli taxmenan 8 million tonna plastik chiqindi okeanlarga tushadi, bu dengiz hayoti va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Pilastik chiqindilarni kamaytirish uchun: Bir martalik plastic mahsulotlardan voz kechish . Qayta ishlanadigan yoki biologik parchalanadigan mahsulotlardan foydalanish kerak .Tashqi muhitga plastik chiqindilarni tashlashni taqiqlash . Mahaliy boshqaruv organlari nazorati ostida chiqindilarni yig`ish tizimini tashkel etish muhim.

5 Yadro va kimyoviy chiqindillar (5%)

Yadro chiqindilari va xavfli kimyoviy moddalar uzoq muddatli ekologik ifloslanishga olib keladi.

Bu kabi muamollarning oldini olish uchun. Xavfli chiqindilarni maxsus saqlash: Ularni xavfisiz saqlash va yo`q qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz maqul .

Tabiatni ifloslanishdan himoya qilishda har bir omilning o`ziga xos yechimlari mavjud. Global miqyosda xalqaro hamkorlik ,mahalliy darajada esa ekologik qonunchilikni kuchaytirish va aholining ekalogik barqarorlikni ta`minlashda faol ishtirok etishimiz ongini oshirish muhim ahamiyatga ega . Har birimiz ekalogik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonov.Sh.Sh Yashil iqtisodiyit 2024-131-bet
2. O`zbekiston respublikasi Yer kodeksi
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Geografiya?wprov=sfla1>
4. <https://library.tsd.uz/storage/books/March2022/hmuhpwwvOeqrMOQsJz6>
5. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/17/NamDU-ARM-857->
6. <https://new.nuu.uz/chair/tabiiy-geografiya/>
7. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/geografiya/umumiy-tabiiy>